

BADIIY ADABIYOTDA METAFORA. ISAJON SULTONNING “ALISHER NAVOIY” ASARI MISOLIDA

Z.Anorboyeva

Qoraqalpoq davlat universiteti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ma'no ko'chish usullaridan biri bo'lgan metafora va uning mazkur badiiy asarda qo'llanilishi, o'ziga xosligi, ijodkor tomonidan asarda yoritilgan, foydalanilgan, yozuvchi tomonidan yaratilgan metaforalar tahlil qilingan. Badiiy dabiyotning quroli so'zdir, uni o'quvchilarga qanchalik tas'irchan va tushunarli qilib yetkazib berish esa yozuvchiga va til imkoniyatlariga bog'liq. Biz ushbu maqolada metafora atamasi, badiiy adabiyotda qo'llanilishi va ijodkorning maqsadlarini ko'rib chiqamiz.

Kalit so'zlar: metafora, ma'no ko'chishi, badiiy matn, ijodkor yondashuvi, badiiy asar tahlili

Badiiy asarlarning matni boshqa yo'nalishda yoziladigan matnlardan o'zining bo'yoqdorligi, tasir doirasi kengligi va o'quvchilarni o'ziga jalb qila olishi bilan farqlanadi. Ijodkor o'zining badiiy matnini yoritir ekan unda turli xil til birliklaridan: iboralar, o'xshatmalar, sinonimlar, antonimlar, metonimiya, sinekdoxa, metofora va yana boshqa ko'plab til imkoniyatlaridan foydalana olishadi. Muallif yuqorida takidlangan birliklardan oqilona foydalana olsagina badiiy matn yanada go'zallashadi.

Avvalboshda, metafora o'zi nima? O'zbek leksikologiyasi va uslubshunosligida ancha mukammal ishlanishi lozim bo'lgan masalalardan biri bu- metaforadir. Metafora murakkab ma'no ko'chish hodisasi hisoblanib, ayni zamonda ham tilshunoslar, ham adabiyotshunoslar diqqatini o'ziga jalb etib keladi. Bu ma'no ko'chishiga tilshunoslar ko'p ma'noli so'zlardagi semalarning ko'chisi, bir predmet nomining boshqa bir predmetga ko'chishi bilan xarakterlasa, adabiyotchilar unga polisemantik so'zlardagi tasvirning turli vositalarni yuzaga keltiruvchi omillar deb biladilar. Metafora so'zining ma'nosiga keladigan bo'lsak u qadimgi yunon tilidan *metaphora* “majoziy ma'no” deb, tarjima qilinadi. Metofora- bir predmet nomining boshqa predmet nomiga ular o'rtasidagi ma'lum o'xshashlik asosida ko'chishi yoki tavsiflovchi iboraning qaysidir

predmetga ko'chirilishidan iborat bo'lgan, aslida bu ibora qo'llanilishi mumkin bo'lgan ob'yektdan farq qiladi, lekin biroz o'xshash bo'lgan nutq shakli hisoblanadi, natija esa metaforik ifodadir. Ingliz tilshunosi Black bu nuqtai nazarni eng ildiz otgan deb belgilaydi va boshqacha fikrni ilgari surgan muallif eski ta'rifga : "bir narsani aytib boshqasini nazarda tutish" yaqinlashmoqda, deb hisoblaydi. Yana bir boshqa olim Jhon Stephen metofoforaga quyidagicha ta'rif beradi, "Metofora-biror narsa yoki harakatni tushuntirish maqsadida ma'lum bir boshqa obyekt xususiyatidan foydalanadigan adabiy tushuncha". Badiiy matnlarda bu til birligidan juda ko'p qo'llanilishi ham aynan manashu xususiyati bilan bo'g'liq, ya'ni bir ma'noni to'g'ridan to'g'ri emas ko'chma ma'nolar orqali yetkazishdir. XIX asr o'rtalaridan boshlab metaforani faqat ko'chim yoki badiiy vosita emas, balki inson tafakkurining, xususan, obrazli tafakkurning muhim mexanizmlaridan biri sifatida tushunish boshlangan va adabiyotshunoslik qatori tilshunoslik, falsafa, mantiq, psixologiya, semiotika kabi ko'plab sohalar ham o'zlarining qiziqishlari doirasida tadqiq etgan. Adabiyotshunoslikda ham metaforani faqat ko'chim sifatida tushunish barham topib, badiiy asarda, tafakkurda tutgan o'rni o'rganila boshlandi.

Isajon Sulton o'zining "Alisher Navoiy" romanida metofoforalardan o'z o'rnida va oqilona foydalana olgan. Juda ko'plab asarlarda uchraydigan va ko'p bora qo'llaniladigan, o'quvchilarga tanish bo'lgan o'xshatmalardan tortib, o'zining ijodiyliги natijasida yuzaga kelgan takrorlanmas ko'chimlarni badiiy asarga joylay olgan. "Feruza osmon", bu o'xshatish barchaga tanish, bu yerda osmon feruza toshining yorqinligi, shaffofligiga o'xshatilmoqda, "sallasini boshiga ko'tarib olgan gullar", gulning ustki qismi, erkaklarning bosh kiyimi bo'lgan sallaga o'xshatishligi. Tilimizda iboralardek bo'lib qolgan bu o'xshatmalar muallif tomonidan asarda kerakli vaziyatlarda badiiy matnni yana tasirli va jilvador qilib yetkazishda o'z o'rnida qo'llay olgan. Bundan tashqari boshqa bir bu mavzuda yozilgan asarlarda uchramaydigan Alisherning taqdiridan, kamolotidan xabar beradigan "dumli yulduz" o'xshatmasini olishimiz mumkin. Bu yerda "dum" so'zi asli hayvonlarning azolariga tegishli nom bo'lib, majoziy ma'no ko'chishi natijasida metofofora yuzaga kelgan.

Asar matnidagi “ne-ne kishilarning aziz boshi siyosat tig‘i ostida o‘lim chuquriga yumaladi” jumlasida “o‘lim chuquri” deya ma‘no ko‘chishi orqali yuzaga kelgan metofora qo‘llanilgan. Insonlarning siyosat natijasida o‘lim topishi, begunoh odamlarning davr qurboni bo‘layotganligi bu ikki so‘z orqali yanada tasirchan qilib tasvirlangan.

Muallif, yomg‘ir yog‘ayotgan jarayonni ifodalash uchun ma‘no ko‘chishini o‘z o‘rnida qo‘llagan holda ajoyib badiiy manzara yaratgan “...kuz qamchisi ila bulutlarni ura-ura ta‘zir bermoqda edi. Bu ta‘zir boisidan bulutlar bag‘ridagi yomg‘irlarini yog‘dirgach, yo‘llar-u yaylovlar kuz yomg‘iri ostida pilch-pilch loy bo‘lib ketdi. “Kuz qamchisi” qamchi o‘z vazifasini bajargan holda bulutlarni urdi va ulardan yomg‘ir yog‘di. Bu yerda metaforaning vazifadoshlik orqali ma‘no ko‘chish hodisasi ko‘rsatilgan va shu bilan jumla oddiy “yomg‘ir yo‘g‘di” birikmasidan ko‘ra chiroyli tarzda ifodalandi.

Yozuvchi asar matnini yoritishda undagi joylar, binolar, insonlar tarifini boshqa badiiy matnlarda uchramaydigan tarzda ifodalagan, aynan metaforalardan foydalanib yoritilgan tariflar matnning yanada badiiyligini oshirgan. Xususan, asarda nomi keltirilishi kerak bo‘lgan qahramonlardan biri Shayboniyni quyidagicha tariflab asar matniga kiritadi, “Dunyo shatranj taxtasida Shayboniy degan piyoda, farzinga aylandi”. Asar o‘quvchisiga malumki, Shayboniy, dastavval, hukmdorlarga, hokimlarga xizmat qiluvchi oddiy navkar bo‘lgan va keyinchalik u imkoniyatlari ko‘p bo‘lgan farzinga aylangan.

Albatta, bu misollar asardagi metaforalarning qo‘llanilganligining bir parchasi xolos. Yozuvchi har bir tasvirni yoritishda o‘zgacha o‘xshatmalar bilan yondoshganligi sababli badiiy matnda yuqoridagi misollardan juda ko‘plab uchratish mumkin. Asar matnidagi metaforalarni tahlil qilishda ko‘rinadiki, muallif xalqqa tanish, tilda ko‘p qo‘llaniladigan metaforalardan tashqari o‘z ijodkorligi mahsuli bo‘lgan ma‘no ko‘chishlari bilan ham asarni boyitgan. Bir ko‘rganda o‘quvchi uchun notanish va tag ma‘nosini anglash murakkab bo‘lgan ma‘no ko‘chishlarini ham asar matnida uchratish mumkin.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, metaforalar badiiy nutqni jozibali qilgani kabi boshqa bir vositalar u kabi nutqni tasirchan qilib ifodalab bera olmaydi. Metaforalarning boshqa lingvistik vositalardan farqi ma'noni yashirin tarzda ifodalashi, narsa -hodisani xarakterlashda taqqoslash, chog'ishtirish kabi holatlarning mavjudligi bu vosita orqali takrorlanmas fikr ifodalash uchun sharoit yaratadi. Shu boisdan ham yozuvchilarning, poetik ijodkorlarning asosiy qo'llanivchi birligi deya metaforlarni aytishimiz mumkin. Biz yuqorida ko'rib chiqqan asar muallifi ham real voqealarga asoslangan holda matnning badiiyligini oshirish maqsadida metaforaga ko'p bora murojaat qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Макс Блек. Методора//Теоретя метафоры.М.,1990.С.153-172.(Пер.М.А.Дмитровской.статя Мах Black. Metaphor
- 2.О'zbek tili stilistikasi.Т.:О'qituvchi,1983,-В.26
- 3.Isajon Sulton. Alisher Navoiy. –Toshkent: “Adabiyot” nashriyoti,2021.